

Belorussiya Davlat Universiteti rektori Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetiga tashrif buyurdi.

2021-yil 6-aprel kuni universitetlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universiteti (TTPU) rektori J. SH. Inoyatxodjayev [Belorussiya Davlat Universiteti](#) (BDU) rektori A. D. Korol boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbat davomida tomonlar universitetlarning imkoniyatlari bilan tanishdilar va universitetlar o'rtasida ta'lim, fan va texnologiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun qo'shma hamkorlik tomonlarini muhokama qildilar.

Ushbu uchrashuv har ikkala universitet uchun yaqin hamkorlik va yangi marralarni zabt etish uchun qadam bo'ladi deb umid qilamiz.







